



UDK: 371.111

Sodiqjon SAIDQULOV,

A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti

E-mail:saidqulovsodiqjon@gmail.com

SamDCHTI professori, f.f.d R.Komilov taqrizi asosida

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI DIREKTORLARINING BOSHQARUV FAOLIYATIDA IJTIMOY MUHITNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada "Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusi doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot doirasida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlarining dastlabki (aniqlovchi) bosqichida umumiy o'rta ta'lim maktabi direktorlari bilan olib borilgan so'rovnomaga javoblari tahlil qilinadi. Tahlillar asosida direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muhit, direktor, respondent, nafar, pedagog, boshqaruv.

ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ РАБОТА ПО РАЗВИТИЮ СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДЫ В УПРАВЛЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ДИРЕКТОРОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ

Аннотация

В данной статье анализируются ответы на анкету, заполненную директорами общеобразовательных средних школ на начальном (исследовательском) этапе пилотных исследований, проведенных в рамках научного исследования по теме «Совершенствование механизмов развития социальной среды в управленческой деятельности директоров общеобразовательных средних школ». На основе анализа были разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов развития социальной среды в управленческой деятельности их директоров.

Ключевые слова: социальная среда, директор, респондент, человек, учитель, управление.

EXPERIMENTAL WORK ON DEVELOPING THE SOCIAL ENVIRONMENT IN THE MANAGEMENT ACTIVITIES OF DIRECTORS OF GENERAL SECONDARY EDUCATION SCHOOLS

Annotation

This article analyzes the responses to questionnaires conducted with principals of general secondary education schools at the initial (diagnostic) stage of experimental and trial work carried out within the framework of a scientific study on the topic "Improving the mechanisms for developing the social environment in the management activities of general secondary education school principals." Based on the analysis, proposals and recommendations aimed at improving the mechanisms for developing the social environment in principals' management activities have been developed.

Keywords: social environment, director, respondent, number of participants, teacher, management.

Kirish. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash va sog'lom psixologik muhitni shakllantirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati, ayniqsa, jamoada ijtimoiy muhitni rivojlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlari muhim omil hisoblanadi[3]. Ijtimoiy muhitning qulayligi pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchilar bilan munosabatlar, ishonch muhiti hamda ta'lim jarayonidagi umumiy barqarorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur maqolada "Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy muhitni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusi doirasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi bosqichi natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida maktab direktorlarining ijtimoiy muhitni boshqarish bo'yicha mavjud tajribalari, yondashuvlari hamda ushbu jarayonni takomillashtirish imkoniyatlari so'rovnomaga natijalari asosida o'rganildi. Maktabdagi ijtimoiy muhitga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim omillardan biri pedagog va rahbarlar o'rtasidagi munosabat ekanligini inobatga olgan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida ijtimoiy

muhitni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlarining aniqlovchi-ta'kidlovchi bosqichida, maktab direktorlari hamda pedagoglar ishtirok etdi.


Maktab direktorlari bilan olib borilgan so'rovnomaga, maktabda ijtimoiy muhitni yaxshilash bo'yicha qanday strategiyalar mavjudligini, direktorning o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qanday boshqarishini, jamoada ijtimoiy muhitni aniqlash uchun qanday monitoring usullaridan foydalanishini, boshqaruvdagi ijtimoiy nizolarni bartaraf qilishda qo'llaydigan choralari, maktab jamoasida ishonch muhitining mavjudligini, ijtimoiy muhitni rivojlantirishga oid pedagoglarning tashabbuslarini qanday qo'llab-quvvatlashlarini, rahbar sifatida o'z kommunikativ ko'nikmalarini qanday baholashlarini, pedagoglarning o'zaro bir-birlarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasini, rahbarlik faoliyatida davomida maktabda ijtimoiy muhitni yaxshilash bo'yicha olib borayotgan ishlarini hamda aynan ijtimoiy muhitni yanada yaxshilash uchun taklif-tavsiyalarini o'rganish maqsadida tashkil etildi.

Asosiy qism. So'rovnomada Respublikamizning barcha 14 ta hududidan menejerlik o'quv kurslarida 2024-2025-

yillar davomida malaka oshirgan 657 nafar maktab direktori va direktorlikka nomzodlar ishtirok etishdi.

So'rovnomada ishtirok etayotgan respondentlar haqida ma'lumotga ega bo'lish maqsadida, ularning yoshi hamda rahbarlik ish tajribasi (staji) haqida savollar taqdim etdik.

Tajriba-sinovning 1-savolida 646 nafar respondent ishtirok etdi. 20-30 yosh oralig'idagi respondentlar 3,7% (24 nafar)ni, 31-40 yosh oralig'idagilar 36,1% (233 nafar)ni, 41-50 yosh oralig'ida rahbarlar 39,8% (257 nafar)ni, 51 va undan katta yoshdagilar 20,4% (132 nafar) ni tashkil etdi. Ushbu yosh taqsimotdan ko'rish mumkinki, respondentlarning asosiy qismi 31 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan tajribali rahbarlardan iborat.




3.1.1.-rasm. So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning yoshi

Respondentlarning 51% (333 nafar) 10 yillik, 23,5% (152 nafar) 1-3 yillik, 20,1% (130 nafar) 11-20 yillik, 5% (31 nafar) 20 yildan ko'p umumiy pedagogik ish stajiga ega ekanligi maktab direktorlarining uzoq yillar davomida maktab ta'limi sohasida faoliyat yuritayotganligidan dalolat beradi (3.1.2.-rasm). Bu esa ishtirokchilarning fikrlari tajriba va ko'p yillik kuzatuvlarga asoslanganligini bildiradi.

So'rovnomada ishtirok etgan rahbarlarning 72% qismi 4 yildan 20 yilgacha bo'lgan tajribaga ega ekanligi, ta'lim

boshqaruvdagi barqarorlikni ko'rsatadi. Ayniqsa, 4-10 yil tajribaga ega rahbarlar yirik guruh bo'lib, ular strategik boshqaruv tizimini joriy etishda yetakchi vazifani bajaradi. 1-3 yil tajribaga ega yangi rahbarlarning salmoqli ulushi esa rahbarlik lavozimlariga yosh kadrlar kelayotganini ko'rsatadi. 20 yildan ortiq tajribaga ega rahbarlarning nisbatan kamligi, ehtimol, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, lavozim almashinuvi va yoshartirish siyosati bilan bog'liqdir.




3.1.2.-rasm: So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning ish tajribasi

So'rovnomada qatnashchilari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lib oldik. Endi bevosita mavzumizga aloqador savollarning tahliliga o'tamiz.

So'rovnomada ishtirok etgan 657 nafar rahbarlardan maktabda ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun ma'lum bir tizim mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha tasavvur va bilimlarini o'rganishni maqsad qildik. Natijaga e'tibor beradigan bo'lsak,

ishtirokchilarning 61,3% (403 nafar) maktabda ijtimoiy muhitni yaxshilash bo'yicha rivojlangan tizim mavjudligini, 30,1% (198 nafar)ida qisman mavjudligini,

6,1% (40 nafar) endilikda rejalashtirilishini, 2,6% (16 nafar)ida esa bunday tizim umuman mavjud emasligini ta'kidlab o'tdi (3.1.3.-rasm).



3.1.3.-rasm: Respondentlarning fikrlari

Ushbu ko'rsatkichlar maktablarda strategik boshqaruv tizimining keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Respondentlarning katta qismi rivojlangan strategiya mavjudligini ta'kidlagan bo'lsa, taxminan uchdan bir qismi strategiyaning qisman amalda ekanligini bildiradi. Bu esa ta'lim muassasalarida strategiya va boshqaruvning rivojlanish bosqichlarini ko'rsatadi. Endilikda rejalashtirilayotgan yoki mavjud

bo'lmagan tizimlar esa boshqaruvning zaif tomonlari yoki modernizatsiya jarayonining boshlanishidan dalolat beradi.

Maktab direktorlarining yoshi, rahbarlik tajribasi hamda ijtimoiy muhitni rivojlantirish strategiyaning mavjudligi o'rtasidagi bog'liqliklarni o'rganish, respondentlarning strategik yondashuvni baholashiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi. Xususan:

Tajribali va o'rta yoshdagi pedagoglar (31-50 yosh) hamda 4-20 yil rahbarlik tajribasiga ega rahbarlar strategik tizim mavjudligi haqidagi javoblarni ko'proq tanlagan. Yosh pedagoglar (20-30 yosh) va kam tajribali rahbarlar (1-3 yil) esa strategiyani qisman yoki endilikda shakllanayotganligi haqida fikr bildirgan.

Bu ko'rsatkichlar strategiya bahosida boshqaruv tajribasi va yosh omilining muhimligini, shuningdek, maktab boshqaruvidagi yangilanish jarayonlarining davom etayotganini tasdiqlaydi. O'z navbatida, bu holat ta'lim muassasalarida ijtimoiy muhitni yaxshilash bo'yicha boshqaruv tizimini doimiy takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tajriba-sinov natijalari maktab rahbarlari va pedagoglar orasida ijtimoiy muhitni rivojlantirishning samarali boshqaruvi uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligini ko'rsatadi. Respondentlarning asosiy qismi 31-50 yosh oralig'ida bo'lib, ular rahbarlik va pedagogik faoliyatda yetarlicha tajribaga ega. Rahbarlarning ko'pchiligi 4-20 yil boshqaruv tajribasini o'zlashtirgani, maktab boshqaruv tizimining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Maktablarda ijtimoiy muhitni yaxshilash bo'yicha strategiyalar aksariyat holatda rivojlangan bo'lib, ta'lim sifatini oshirish va muassasa faoliyatining uzluksiz takomillashuvi uchun asos yaratadi. Biroq, qisman mavjud yoki endilikda rejalashtirilayotgan strategiyalar mavjudligi boshqaruv tizimida takomillashtirish hamda zamonaviylashtirish talab etilayotgan jarayonlarning mavjudligini ko'rsatadi. Ushbu natijalar maktab boshqaruvida yosh va tajribani hisobga olgan holda, strategik rejalashtirish hamda ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi. Maktab rahbarlarining tajribasi hamda ularning yosh tarkibi strategiya samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ta'lim tizimida doimiy ravishda rahbarlar va pedagoglarning professional salohiyatini oshirish, strategik


boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha ishlarni kuchaytirish lozim.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy muhit o'qituvchi-o'quvchi munosabatlari orqali ham shakllanadi. Shundan kelib chiqib, respondentlarga "o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni qanday boshqarasiz?" savoli berildi. Direktor ushbu munosabatlarni to'g'ridan-to'g'ri boshqarmasa ham, maktab siyosati, pedagogik jamoa faoliyati, tarbiyaviy ishlar tizimi hamda psixologik xizmat orqali bilvosita tartibga soladi.

Respondentlarning 68,5% (450 nafar) bunday vaziyatda ijtimoiy munosabatlarni vaziyatga qarab boshqarishini, 27,1% (178 nafar) bu jarayonlarga doimiy aralashishlarini belgilagan bo'lsa, kam yoki hech qachon aralashmaydiganlar toifasi 4% (29 nafar)ni tashkil etdi.

Tajriba-sinovning 4-savol natijalari shuni ko'rsatadiki, maktablarda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar direktorlar tomonidan asosan vaziyatga qarab boshqariladi. Bu boshqaruv modeli profilaktik yondashuv emas, balki reaktiv yondashuvning ustunligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, doimiy nazorat qiladiganlar yetarlicha ko'pligi bu ijtimoiy muhitning barqaror rivojlanishi uchun muhimligini, loqayd yondashuv deyarli yo'qligi bu maktablarda ijtimoiy jarayonlarning ahamiyatini yaxshi anglanishini ta'kidlash mumkin.


Navbatdagi savolda maktab direktorlarining ijtimoiy muhitni aniqlashda qanday monitoring usullarida foydalanishlari haqida fikrlarini o'rgandik. 657 nafar respondentlarning 54,5% (358 nafar)i suhbat yoki so'rovnoma orqali, 37,3% (245 nafar)i faoliyat tahlili orqali, 5% (38 nafar)i hech qanday monitoring usullari mavjud emasligini, 2,4% (16 nafar)i esa rasmiy hisobotlar orqali maktab jamoasidagi ijtimoiy muhitni monitoring qilishlarini belgilashgan (3.1.4-rasm).



3.1.4.-rasm: Respondentlarning fikrlari

Boshqaruvdagi ijtimoiy nizolarni bartaraf etishga qaratilgan choralarini aniqlashga qaratilgan navbatdagi savolga, respondentlarning 71,1% (467 nafar)i muloqot va maslahat orqali bartaraf etishini belgilagan bo'lsa, maktabdagi ichki-tartib hamda mezonlarga tayangan holda barataraf etishni


belgilagan direktorlar 21% (138 nafar) ni tashkil etdi. Maxsus ishchi guruh nizolarni hal etadi deb, 7,3 (48 nafar) respondent javob berdi. Umuman bunday holatlarga aralashmaydiganlar 0,6% (4 nafar) ni qamrab oldi (3.1.5.-rasm).



3.1.5.-rasm: Respondentlarning fikrlari

Respondentlarning maktab pedagogik jamoasi ichida bir-biriga ishonch muhiti haqidagi savolga, 76,4% (502 nafar)i to'liq ishonch muhiti mavjudligini, 20,2% (133 nafar)i qisman

mavjudligini, 2,7% (18 nafar)i bunday muhit juda sustligini, 0,6% (4 nafar)i ishonch muhiti umuman mavjud emasligini belgilab berdi (3.1.6.-rasm).




3.1.6.-rasm. Respondentlarning fikrlari

Pedagoglar tomonidan maktabdagi ijtimoiy muhitni yanada yaxshilash uchun aytilgan fikrlarni 632 nafar direktor to'liq qo'llab-quvvatlashini, 23 nafar direktor bunday tashabbuslarga kam e'tibor berishini, bunday fikrlarni umuman e'tibor bermaydiganlarning so'rovnomadagi ishtiroki topilmadi.

Maktabdagi ijtimoiy muhitni baholash uchun tashqi ekspertlar guruhi (yoki jamoasi) jalb qiluvchi direktorlar 16,9% (111 nafar)ni, ba'zida yoki juda kam jalb qiluvchi direktorlar 57% (374 nafar)ni, bundan baholash uchun tashqi ekspertga ehtiyoj sezmaydigan (yoki jalb etmaydigan) respondentlar 26,2% (172 nafar)ni tashkil etdi.

Rahbarning o'zining kommunikativ ko'nikmalarini qanday baholashi ham bevosita ijtimoiy muhitga ta'siri mavjudligini inobatga olib, navbatdagi savolda respondentlarga aynan shunday savol bilan yuzlandik.


Javoblarda o'z kommunikativ ko'nikmalarini yuqori darajada deb 19,6 % (129 nafar) respondentlar belgilagan bo'lsa, bu ko'nikmasini yanada rivojlantirish kerak deb 20,1% (132 nafar) ishtirokchilar qayd etgan. Kommunikativ ko'nikmasini yetarli darajada rivojlangan deb 59,7% (392 nafar) shaxs hisoblasa, 0,6% (4 nafar) respondent buni bilmasligini ko'rsatishgan (3.1.7-rasm.)



3.1.7.-rasm. Respondentlarning fikrlari

Direktorlar jamoada ijtimoiy muhitni yaxshilash uchun 44,3% (291 nafar) muloqot va muomala madaniyatiga, 42,8% (281 nafar) pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikga, 8,2% (54

nafar) o'quvchilar bilan ishlash sifatiga, 4,7% (31 nafar) tashqi muhit bilan integratsiyaga tayanishini belgilab bergan (3.1.8.-rasm).



3.1.8.-rasm: Respondentlarning fikrlari

Maktabning ijtimoiy muhiti - bu o'quvchi, o'qituvchi va rahbariyat o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamkorlik hamda qulay psixologik atmosferani ta'minlaydigan muhim omil hisoblanadi. So'rovnomaning eng oxirgi, ochiq savolida respondentlar o'z takliflarini erkin shaklda bayon qilganlari uchun ushbu savol rahbarlarning real ehtiyojlari, muammolari va rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarni chuqur anglash imkonini berdi.

Tahlil natijalariga ko'ra, takliflar mazmuniy jihatdan bir nechta yirik tematik bloklarga guruhlandi.

1. Pedagogik jamoaning hamkorligini kuchaytirish
2. Muloqot va boshqaruv madaniyatini oshirish
3. O'quvchilar bilan ishlash sifati va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash
4. Tashqi muhit bilan aloqalarni kuchaytirish
5. Motivatsiya, rag'batlantirish va ijobiy muhit yaratish

Xulosa. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablarida ijtimoiy muhitni rivojlantirishda maktab direktorlarining boshqaruv faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. So'rovnomada ishtirok etgan rahbarlarning aksariyati yetarli boshqaruv tajribasiga ega bo'lib, maktab jamoasida ijtimoiy muhitni

yaxshilash bo'yicha muayyan strategiyalarni amalga oshirib kelayotganliklari aniqlandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, maktablarda ijtimoiy muhitni rivojlantirish ko'proq muloqot madaniyati, pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, ishonch muhitini shakllantirish hamda nizolarni muloqot orqali bartaraf etishga tayanadi. Shu bilan birga, ayrim maktablarda ijtimoiy muhitni boshqarish tizimi qisman shakllangan yoki endigina rejalashtirilayotganligi, ushbu yo'nalishda tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Maktab direktorlarida muloqot madaniyatini, pedagoglar o'rtasidagi hamkorlikni, ishonch muhitini shakllantirish hamda nizolarni muloqot orqali bartaraf etishni yanada yaxshilash maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 681-son qarori [1], hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 24-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorligiga nomzodlar uchun menejerlik o'quv kurslarining o'quv reja va dasturlarini

tasdiqlash to'g'risida"gi 412-son buyrug'i [2] asosida, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida tashkil etilayotgan menejerlik kurslarini na'muna qilib olishimiz mumkin. "Kommunikativ strategiyalar boshqaruv vositasi sifatida", "Jamoada sog'lom muhitni tashkil etish va ahil jamoani shakllantirish yo'llari", "O'qituvchilarning o'zaro hamkorligi va kasbiy hamjamiyatlar" kabi trening mavzulari orqali ta'lim muassasalari rahbarlarida maktab jamoasida hamkorlikka asoslangan ta'limiy va boshqaruv strukturalarini shakllantirish kompetensiyalari rivojlantiriladi. Mazkur treninglar doirasida ta'lim muassasasi jamoasida sog'lom muhitni vujudga keltirishning pedagogik va psixologik asoslari, sog'lom ijtimoiy-psixologik iqlimni ta'minlash omillari, jamoada yuzaga keladigan nizolarning turlari hamda ularning

oldini olish va samarali bartaraf etish mexanizmlari tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatida kommunikativ strategiyalarni maqsadli qo'llash orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va ta'lim sifati o'zgarishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab beriladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorlarining yosh va boshqaruv tajribasi ijtimoiy muhitni rivojlantirish strategiyalarining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun umumiy o'rta ta'lim muassasalarida rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini, kommunikativ ko'nikmalarini hamda ijtimoiy muhitni rivojlantirishga oid strategik rejalashtirish malakalarini muntazam oshirib borish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrda "Davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o'quv kurslarida o'qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 681-son qarori.
2. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 24-dekabrda "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorligiga nomzodlar uchun menejerlik o'quv kurslarining o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash to'g'risida" 412-son buyrug'i.
3. S.Saidqulov, M.Xalimov, Yu. Jabborova, L. Turikova, Sh. Daminova, D. Rejapova, A. Jurayev. "Inson resurslarini boshqarish (HR)" (Davlat umumiy o'rta ta'lim direktorlari va nomzodlar uchun) o'quv qo'llanma. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. -T:2025-yil 128 bet.